



**MUSIQA SOHASIDA BO ‘LAJAK MUTAHASISLARNI YETUK KADR ETIB
TARBIYALASHDA QADRYATLAR VA MILLIY AN‘ANALARGA TAYANIB
TA‘LIM BERISHNING IJOBIY JIHATLARI**

Mohigul Akbarova

Guliston davlat universiteti “san’atshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

Gayrat Azamkulov

Guliston davlat universiteti “san’atshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

Eshmamat Babamurodov

Guliston davlat universiteti “san’atshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa ilmida tahsil olayotgan talabalarga ta‘lim berish jarayonlarida “ustoz - shogird” an‘analariga tayanib milliy musiqa merosimizni asrab avaylash, uni asl holicha o‘rganib kelajak avlod vakillariga yetkazish kabi maqsadli fikrlar ilgari surilgan. Maqola uch pedagog tomonidan o‘zaro hamkorlikda yozilgan bo‘lib, bir necha yillik tajribalar asosida jamlangan xulosalar asosida yozilgan.

Kalit soz‘lar: musiqa ilmi, ustoz –shogird an‘analari, milliy qadryatlar, maqom, musmtoz musiqa, pedagogic mahorat, musiqiy meros.

O‘zbek xalqining an‘anaviy musiqa merosi hisoblanmish mumtoz kuylar, maqom turkumlari, milliy qadryatlarimiz va urf odatlarimiz hosliasi bo‘lmish folklor qoshiqlari o‘ziga xos badiiy estetik janr tizimidir aslida . O‘zbek xalq milliy, mumtoz musiqa merosimiz namunalarini aslicha kelajak avlod vakillariga yetkazish bizning ustozlik vazifamiz ekan biz bu borada nimalarga ahamiyat qaratishimiz kerak?. Bu borada qanday



amaliy ishlar qilayapmiz? Qanday rejalar tuzishimiz kerak? Degan savollarga ushbu maqolada qisqacha to'htalganmiz.

Biz mumtoz qo'shiqlarimizni yosh avlodga o'rgatishda avvalo mumtoz musiqa merosimizni yaralishi, uning rivojlanish bosqichlari, uning shakllanishiga sababchi bo'lgan musiqashunos olimlar, fuzalolarimiz, kata ustozlarimiz ilmiga nazariy jihatdan to'htalib o'tishimiz shart. Har bir o'rganilayotgan kata yohud kichik bo'lsin bir musiqiy asar ustida ishlar ekanmiz uni avvalo nazariyasini, yaralishini, sheri va kuyining mualligini, kimlar qachon? qayerda? Ijro qilganligini talabag aniq dalillar bilan yetkazishimiz darkor. Talaba milliy mumtoz qo'shiqlarni ijro etishni boshlash davrida avvalo nimaga ahamiyat qaratishiga ustoz sifatida to'g'ri yo'l ko'rsatish kabi ma'suliyatimizni hisobga olib, u individual tarzda ashulani to'g'ri tanlab uning ovoz imkoniyatlariga ham e'tibor qaratishimiz lozim.

Milliy mumtoz qo'shiqlarimizning naqadar bebaho ekanligini anlatish biz pedagoglarning vazifamiz ekan, talabalarimiz tushunchasini mumtoz qo'shiqlarimizning ijro yo'nalishi, matni, ma'nosi va tarihi bilan boyitishimiz kerak deb o'ylayman. Biz biror asarni olar ekanmiz, uni talabaga avvalo tarihini, kelib chiqishini, ma'no mohiyatini, kuyi va matni haqida o'zimiz butun ma'lumotga ega bo'lishimiz va butunligicha qanday bo'lsa shundayligicha yetkazib berishimiz kerak. Milliy qo'shiqchilik san'ati ustoz – shogirtlik an'analari asosida o'qitiladi va aynan milliy mumtoz qo'shiqlarimizning asl holicha qanday yaralgan va qay tarzda ijro etilgan bo'lsa shu holicha o'rgatish milliy mumtoz qo'shiqlarimizning umrini uzaytirdi. Talabaga biror asarni berar ekanmiz, uni mayda – mayda elementlarga bo'lib, kuyning har bir notasini, qo'shiq matnining har bir bayti, so'zini ma'nolarini singdirishimiz zarur.

Musiqa san'ati masalalariga umumfalsafiy nuqtai-nazardan yondashadigan bo'lsak, avvalo, u ma'naviy-estetik qadriyatdir. Unda moddiy manfaatdorlikdan ko'ra ma'naviylik ko'proq aks etadi. Shuning uchun insonlar chinakam san'at asarlarini qadrlaydi. Zero,



sanʼat inson faoliyatida zarur boʻlgan muhim ehtiyojlarni qondiradi. Bu ayniqsa, - hayot estetik tuygʻu bilan tuʻgʻilgan estetik ehtiyojlardandir. Har bir ashulaning tub – tubida joylashgan maʼnosini anglab oʻsha maʼnoni asl holicha tinglovchiga yetkazib berish bosh vazifamizdur. Biz mumtoz qoʻshiqlarimizning bugungi kundagi ijrosidagi kamchiliklarni aynan kuy va soʻzning maʼnosini anglamay oddiy soʻz va kuy birikmasi sifatida qarayotganimizda deyishimiz mumkin. Biz mumtoz qoʻshiqlarimizning nechogʻliq sehrga, maʼnoga, joziba va ichki tarihiga nazar salsak cheksiz ummonni koʻrishimiz mumkin. Ijodkorlar tomonidan yaratgan milliy faqatgina bizning xalqimizga hos boʻlgan mumtoz qoʻshiqlarimizning bizgacham yetib kelganligidan vazifamizni anglab olishimiz qiyin emas. Bizga mumtoz qoʻshiqlar bekamu koʻst ustozlar tomonidan yetib kelgan ekan, bizning vazifamiz esa anashu asl hazinani yosh avlodga asl hlicha yetkazib berishdan iborat.

Bugun asriy qadriyatlar negizida qaror topgan boy musiqa merosimizning oʻrganish masalalari yangi bosqichga koʻtarilmoqda. Oʻzbek xalq ogʻzaki anʼanasidagi kasbiy sanʼat asarlarining xalq eʼzoziga tushishi, maqom ashulalarining, kata ashulalarining va maqom yoʻllaridagi mumtoz asarlarining ijrochilik taomilidan munosib oʻrin egallashi bu jarayonga oʻzgacha salohiyat baxsh etdi. Bugungi kunda ularni tadqiq etish, pedagogik taʼlim tizimida ularning oʻrganilishini oʻtmish va bugungi kun misolida tahlil qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shunnigdek, har qanday sanʼat turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, soʻnggi yuz yillik mobaynida Oʻzbekiston musiqasining rivojlanishi nechogʻlik murakkab va oʻzgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish va uni tadqiq etish ustivor ahamiyat kasb etib bormoqda. Maʼlumki maqom taʼlimotini oʻrganish mazkur muhtasham sanʼat paydo boʻlishidan boshlab vujudga kelgan. Qolaversa maqom sanʼatini oʻrgatilishi, taʼlim shakllari uzoq oʻtmishdan shakllanib bugungi kunga qadar taraqqiy etib kelmoqda.

Oʻzbek milliy –anʼanaviy ashulachiligi deganda keng maʼnoda katta ashula nomli janr ham nazarda tutiladi, albatta. Biroq hisobga olmoq lozimki, mazkur janrning ayni



musiqiy qonuniyatlari, uslubiy ko'rsatgichlari hamda ijrochilik me'yorlari ashulaga nisbatan o'zgachadir. O'zbek xalqi ulkan va betakror musiqiy merosga ega. O'zbek milliy musiqa san'atining gultoji sanalgan "Shashmaqom" va uning turkumlari mumtoz she'riyatimiz bilan uyg'un holda g'oyat go'zal san'at namunasini hosil etganki, bu yuksak musiqaga jahon ahli hayrat bilan qaraydi. Maqom ajdodlardan biz avlodlarga o'tib kelayotgan boy xazina. Uni asrab avaylash va bugungi kun yosh ijodkorlari uchun o'z aslicha hech bir ziyonlarsiz yetkazib bera olishimiz shart. Buning uchun esa avvalo o'zimiz bu oltin san'atning tub mazmunini anglashimiz, undagi sehrli jilolaru, qalblarni titratguchi pardalarini aynan asl holicha tushunmog'imiz va ijro etmog'imiz kerak. Aks holda o'zimiz to'laqonli anglab yetmagan tushunchani yosh avlodga yetkazgudek bo'lsak bu durdona san'atga bo'lgan bizning o'quvsizligimiz va hurmatsizligimiz bo'lib qolishi mumkin. Maqom san'atini o'rganishda quyidagi maslahatlarga amal qilish maqsadga muvofiqdur.

Maqom san'atini o'rganar ekansiz undagi manbaalar va uni kelib chiqishi haqida chuqurlashsangiz har bir qirradi inson siyratidan olinganini anglab yetasiz. Masalan maqomdagi usullarni olaylik, Usullar maqomlarning tuzilish xarakterini belgilovchi omillardandir. Ularni ajrata olish, maqomlarni qiyofasini to'g'ri tushunishga imkon beradi. Ular muayyan tartib asosida tarkib topgan. Har bir usul o'z nomiga egadir. Milliy ma'naviyat va ma'rifat yangidan ko'z ochayotgan bir davrda mafkuramizning rivojlantirishda xalqimizning umrboqiy san'at tarixini keng yoritish, musiqa merosimizni o'rganish va sanoatsevar xalqimizga etkazish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa bu borada ustozdan - shogirdga o'tib kelgan xalq anoanaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o'tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlarida murojaat qilish bilan birga bobokalon sanoatkorlarimiz meros qilib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o'rganib talabalarga o'rgatish bizning ustozlik burchimizdir.

Ustoz-shogird an'analari eng qadimgi davrlardan mavjud bo'lib, ularni mazmunmohiyati yillar o'tishi, jamiyat ijtimoiy formatsiyalarining o'zgarishi asosida



o'zgarib davr talablariga moslashtirib boriladi. Bugungi kunda ustozlar an'anasini davom ettirishib, qator yosh san'atkorlar muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Ular ustozlar maktabiga suyangan holda o'zlariga xos ijro yo'llari va uslublari bilan qo'shiqchilik xazinasiga sezilarli xissa qo'shmoqdalar. Ustoz-shogird an'analari deganda bir necha yillar emas, necha ming yillar, asrlar haqida fikr qilish lozim ya'ni milliy musiqa merosimizning ilk shakllandan ondan bugungi kunga qadar izlanish olib brogan olimlar, musiqashunoslar, asriy xofizlar va ularning og'izdan og'izga o'tib kelgan ijrochilik an'analari xususida so'z boradi. An'anaviy qo'shiq ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'lkamizda bu muqaddas san'atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdulg'ani, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Zohidxon hofiz, Madali hofiz, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Matyoqub Xarratov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir. Musiqa merosimiz ustuni "Shashmaqom" (Sayfuddin Urmaviy) ungacha bo'lgan davrda "O'n ikki maqom" (Buxoro musiqashunos olimlari) tizimi, "Xorazm tanbur chizig'i" va undan ham ilgari saroy sozandalari hamda xofizlarining ijodi, xayot yo'llari haqida chuqurroq anglashga harakat qilsak ularning bilim va malakalari, Olloh in'om etgan qobiliyatlari va ushbu qobiliyatni qanday shakllantirib, rivojlantirib borganliklari haqida anglash oson kechadi. Ushbu jarayonlarni o'rganish jarayoni hamda o'rgatish jarayoni pedagogik tajriba va ko'nikmalarni mustahkamlovchi omillardan sanaladi. Maqom an'analari hamda uning kuylanish yo'llarini o'qib o'rganar ekanmiz sof ovoz, jozibali, mukammal talqin, keng diapazon, shunga xos ko'lam va mahoratda o'z ifodasini topadi. Bunga erishish uchun esa saboq, ilm, bilim, sabot hamda uquv lozimdir. An'anaviy xonandalik bir qator uzluksiz rivojlanib boruvchi omillarga tayanadi: kuy, she'r matnini puxta o'rganish, ijro maqsadini imkon qadar to'la ochib berish, ovoz yo'nalishidagi omomentik qoidalarni aniq ifodalash ana shunday omillardandir. Milliy musiqiy bezaklar, ovozning o'zbekona tuslanishi va sadolanishini ta'minlash, ijro jarayonini to'laligicha va alohida-alohida holda uni o'rab



turgan ijroviy-ijodiy, ilmiy-nazariy tomonlarini qiyosiy o'rganish san'atkorlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri. An'anaviy xonandalik yo'nalishida bir necha yillardan beri ijod qilib talabalarga bilim berib kelayotgan ustozlarning tajriba va malakalari asosida ta'lim berib va yana yosh pedagogic shijoat, yangiliklarga, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan amaliy va nazariy bilimlarni umumlashtirish orqali biz o'z sohamizda ko'zlangan maqsadga erishishimizni aniq va mukammal tarzda taminlay olamiz. Bugungi davrda har kuni dush keladigan kompetensiya tushunchasi ham yuqoridagi fikrlarning jamlanmasi aslida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Yo'ldiyeva An'anaviy yakka xonandalik. o'quv qo'llanma Toshkent 2018.
2. O.Matyoqubov, Maqomot, Toshkent 2004.
3. An'anaviy xonandalik yo'nalishi bo'lajak mutahasislariga bilim berishda pedagogik kompetensiyalar Moxigul Gulomovna Akbarova "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022
4. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
5. Akbarova Mohigul, & Tadjiboyev Dilmurod. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE ART OF NATIONAL MAQOM IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL COMPETENCIES OF FUTURE PROFESSIONALS IN THE FIELD OF VOCAL ART TRADITIONAL SINGING. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6637423>
6. Akbarova , M. (2022). VOKAL SAN'ATI. AN'ANAVIY HONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING UMUMMILLIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNLOGIYALARI. *Евразийский журнал академических исследований*